


**Boshlang'ich ta'limda an'anaviy
va innovatsion ta'limning integratsiyasi**

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11229328>



ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-may 2024 yil

Ma'qullandi: 20-may 2024 yil

Nashr qilindi: 21-may 2024 yil

KEY WORDS

*innovatsiya , texnologiya , interfaol
metodlar , integratsiya , axborot
texnologiyalari , ta'lim , islohot ,
kreativlik , zamonaviy ta'lim .*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim
jarayonida an'anaviy va innovatsion
ta'limning integratsiyasining ahamiyati
xususida fikr yuritiladi.*

KIRISH. Bilamizki ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zamirida yoshlarni intellektual salohiyatli keng mushohada yuritadigan XXI asar yoshlarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qo'yilgan. Ta'lim tizimini isloh qilish natijasida, shu kabi muammolarni yechimini topishga muvaffaq bo'lish mumkin. Aytish joizki, agarda ta'lim tizimida ko'p yutuqlarga erishilsa, jamiyatda mavjud bo'lgan barcha sohalarni yuksaltirishga erishiladi. Boshlang'ich ta'lim tizimini isloh qilish natijasida esa, yoshlarni dastlabki asosiy davridanoq ularni to'g'ri yo'naltira olishlik, bilimlarni puxta o'zlashtirishlariga imkon yaratishga erishiladi. Chunki boshlang'ich ta'lim tizimi bolaning endi shakllanadigan, asosiy va muhim davri hisoblanadi. Shu sababli ham ushbu davrda egallangan bilimlar kelgusi mukammal bosqichlarda dasturamal bo'lib xizmat qiladi. Bolaning sifatli ta'lim-tarbiya olishida oila, maktabgacha ta'lim muassasalari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari mas'uldir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, mavzuga oid adabiyotlardan va yana bir qancha o'quv qo'llanmalardan foydalanildi.

MUHOKAMA

An'anaviy ta'lim bugungi ta'lim tizimimizda eng ko'p tarqalgan ta'lim turi hisoblanadi. "An'anaviy ta'lim" atamasi, ilk bor XVII asrda shakllangan o'qitishning sinfda tashkil etilgan shakli bo'lgan. An'anaviy ta'lim asoslari bundan to'rt asr oldin Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarida dastlabki ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

An'anaviy ta'lim bugungi kunda zamonaviy an'anaviy ta'lim deb ham yuritilib kelinmoqda. An'anaviy ta'limning bir qancha afzallik jihatlari mavjud :

- Darsda qisqa vaqt mobaynida o'quvchilarga fan asoslari va yangi bilimlarni yetkazib berish.
- O'rganilayotgan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlab borish.
- Dars jarayonida o'qituvchining faol ishtiroki.

Innovatsion ta'lim tushunchasi ta'lim tizimimizda endi targ'ib etilib kelinayotgan ta'lim tizimi hisoblanadi. Dastavval innovatsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak. Innovatsiya (inglizcha . innovation - kiritilgan yangilik , ixtiro) degan ma'nolarni anglatadi. Innovatsion ta'lim deganda , an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq , ta'lim tizimini yangicha talqinda isloh qilish , yangicha interfaol metodlarni qo'llagan holda , darsni tashkil etish tushuniladi .

Boshlang'ich ta'limda an'anaviy ta'lim va innovatsion ta'limning integratsiyasi deganda , avvalambor integratsiya so'zini lug'aviy ma'nosini izohlasak . Integratsiya so'zi (lot. Integratio – tiklash , to'ldirish , integer – butun) kabi ma'nolarni bildiradi . An'anaviy ta'lim va innovatsion ta'limning integratsiyasi deganda , ikkala ta'lim tizimini uyg'unlashtirgan holda , ta'lim tizimini noodatiy dars muhitini tashkil etish tushuniladi . Boshlang'ich ta'limda an'anaviy va innovatsion ta'limni uyg'unlashtirish natijasida , dars sifatini yaxshilashga erishish mumkin . An'anaviy ta'limda ko'proq o'qituvchi ishtiroki ta'minlansa , innovatsion ta'limda o'quvchi va o'qituvchi ishtiroki ta'minlanadi . Boshlang'ich ta'limda an'anaviy va innovatsion ta'limni uyg'unlashtirish natijasida o'quvchilarning dars jarayoniga faol ishtirokini ta'minlansa bo'ladi . Dars jarayonida faol interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib , darsni tashki etilsa , o'quvchilarning yangi mavzuni tushunish darajasi ortadi . Ta'lim tizimida innovatsion muhitni shakllantirish , dars jarayonini samarali interfaol texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda . Shu jumladan boshlang'ich ta'lim jarayonini innovatsion shaklda tashkil etish bir qancha imkoniyatlarga sabab bo'ladi va quyidagi afzalliklarga ega .

- Darsda o'quvchining faol ishtiroki ta'minlanadi . O'quvchi darsda faqatgina tinglovchi emas , balki o'z-o'zidan ishtirokchiga aylanadi .
- O'quvchilarda ijodkorlik , kreativ fikrlash va boshqa bir qancha ijobiy hislatlarni shakllantirishga turtki bo'ladi .
- O'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch hissini shakllanishida , o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatadi .
- Izlanuvchanlik , yangi g'oya va fikrlarning bola tasavvurida aks etishi , va boshqalar .

Bilamizki boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan chiqib , umumiy o'rta ta'lim muassasalarida endi shakllanib borayotgan yosh avlod hisoblanadi . Agarda dars jarayonlarining butun qismi an'anaviy dars shaklida o'tkazilsa , o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish pasayib , zerikish va toliqish kabilar kuzatilishi mumkin . Dars jarayonlarini innovatsion ta'lim tizimida olib borilsa , o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi , darslarda faol ishtiroki ta'minlanadi .

XULOSA . Umumiy qilib aytganda , boshlang'ich ta'lim tizimini innovatsiya kiritgan holda olib borilsa , dars samarali tashkil etiladi . O'quvchilarni yangi ma'lumotlarni qabul qilishida qiyinchiliklarga duch kelinmaydi . Bilim sifati yaxshilanadi . Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash , ularni ilmiy jihatdan fanga bog'lash va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi . Shunday ekan boshlang'ich ta'lim tizimida an'anaviy ta'lim

va innovatsion ta'limning uyg'unligi yaxshi natija beradi. Dars samaradorligi oshadi. Ta'lim jarayonini amalga oshirishda qo'llanilgan yangi texnologiyalar va zamonaviy metodlar o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishga undaydi desak adashmagan bo'lamiz. An'anaviy va innovatsion ta'limning birgalikdagi uyg'unligi, ta'lim sifatini yaxshilanishiga keng imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari.
2. O'.Yo'ldoshev "Pedagogika" o'quv qo'llanma.
3. Mirjon Amonov "Innovatsion ta'limda texnologiyalardan foydalanish"
4. D. Akaboyeva, A. Akaboyeva, N. Davirova "Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari" metodik qo'llanma.
5. Sh. Sh. Olimov, Sh. X. Samiyeva, N. X. Aslanova, F. J. Ro'ziyev "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari"
6. Ziyonet tarmoqlari.

